



**O'LMAS UMARBEOVNING "ODAM BO'LISH QIYIN" ASARI
BADIY TAHLILI**

Ilmiy rahbar: Feruza Sapayeva Davlatovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Jahon adabiyoti kafedrasi professori

Email: feruzasapayeva86@gmail.com.

Orcid ID: 0009-0004-2079-8754

Jalolova Charos Jasur qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Email: jalolovacharos453@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" asari haqida tahlil qilinarkan, uning hozirgi hayotimizdagi ijtimoiy, umuminsoniy, zamonaviy va ma'naviy ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, asarda yoshlarning ma'naviy-axloqiy iztiroblari, jamiyatdagi murakkab hayoti aks etadi. Roman tilining soddaligi, hayotiy haqiqatlarning aks etganligi, voqealarning ijtimoiy muammolar bilan bog'langanligi bilan o'zbek adabiyotida alohida ajralib turadi.

Kalit so'zlar: obraz, yoshlik, vafo, sof muhabbat, xiyonat, odamiylik, olimlik, ma'naviy kurash, tarbiya.

Аннотация: В данной статье анализируется произведение Олмаса Умарбекова «Одам бо'lish qiyin» и говорится о его социальном, общечеловеческом, современном и духовном значении в нашей нынешней жизни. Также в произведении отражены духовно-нравственные страдания молодежи и ее сложная жизнь в обществе. Роман выделяется в узбекской литературе простотой языка, отражением жизненных реалий, связью событий с социальными проблемами.



Ключевые слова: имидж, молодость, верность, чистая любовь, предательство, гуманность, наука, духовная борьба, образование.

Abstract: This article analyzes Olmas Umarbekov's work "Odam bo'lish qiyin" and talks about its social, universal, modern and spiritual significance in our current life. Also, the work reflects the spiritual and moral suffering of young people, the complex life in society. The simplicity of the novel language, the reflection of life realities, and the fact that the events are connected with social problems stand out in Uzbek literature.

Key words: image, youth, loyalty, pure love, betrayal, humanity, science, spiritual struggle, education

Kirish. Ushbu roman O'zbekiston xalq yozuvchisi O'lmas Umarbekov qalamiga mansub bo'lib, asar adibning 1969-yilda yozilgan ilk asari hisoblanadi. Roman yozuvchining ilk katta asari bo'lsada, yaxshi muvaffaqiyat qozongan va ellik yildan beri qayta-qayta nashr etilmoqda. Asar sovet va undan keyingi davrlarda bir qancha tillarga tarjima qilinib nashr etilgan. Ilk bora 1970-yilda "Yosh gvardiya" nashriyoti tomonidan nashr etilgan. 1985-yilda esa "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti" asarni "Yoz yomg'iri" qissasi bilan birga 30 000 nusxali qattiq muqovada nashr etgan.

Ushbu asarda hayot, hayotning haqiqatga to'la nafasi ufurib turadi va real voqealarga asoslanib yozilgandek insonni o'ziga jalb etadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ushbu romanni O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'ofurov: "O'tgan asrning 60-70-yillarida bizda hosil bo'lgan tasavvurlar yana xayolimda toboro jonlandi. Uning "Odam bo'lish qiyin" asari kitobxonlar tomonidan talashib-tortishib o'qiladigan o'qilgan" deb ta'rif beradi. Ba'zi ijodkorlar asarni Teodor Drayzerning "Amerika fojiasi" asariga qiyoslanib, uni o'zbek mentaliteti va ijtimoiy ziddiyatlar aks etgan variant deb ta'riflashgan.

Asosiy qism. Olim bo'lish oson-u, odam bo'lish qiyin! Mazkur jumla zamirida keng ma'no yotadi. "Odam bo'lish qiyin" asari olimlik va odamiylikni farqlovchi asardir. Inson hayotda yashar ekan, hayot yo'lida turli xil sinov, qiyinchilik, to'siq imtihonlarga uchraydi. Aynan o'sha to'siqlarni qay yo'sinda



bartaraf qilish, dovonlardan qaysi yo'l orqali oshib o'tish, hayot sinovida nechog'lik jasorat ko'rsata olish insonga va uning irodasiga bog'liq. Hamma ham o'qishi mumkin, ammo uqishi-chi?! Ulug' shoirimiz Shayx Sa'diy aytganidek: "Ustiga kitob ortilgan eshak, Na olim-u, na dono beshak". Ilmni o'rganib bo'lib, uni hayotga tatbiq qilish, undan bahramand olish uchun kishidan katta matonat va farosat talab etiladi. Asar qahramoni Abdullajon esa aynan ilmni tatbiq qilishga kelganda biroz adashdi va odamiyligini boy berib qo'ydi.

Osmonda bo'zto'rg'ay,
Bo'zlamasang na bo'lg'ay?
Gulchehraning holini
So'zlamasang na bo'lg'ay?

Asarning boshidagi ushbu birgina alyor butun asar mazmuniga singib ketgan. Asarqahramonlari: Abdulla, Gulchehra, Samad, Sayyora kabi maktabni endigina bitirgan, katta hayot ostonasida turgan yoshlar haqida, ularning maqsadi, rejaları haqida hikoya qiladi. Asarda o'zbek ayolini yaqqol namoyon etgan Hojar buvi, kuni mehnarda o'tadigan Obid aka, o'zining jonkuyar mehnati uchun "Mehnat qahramoni" unvonini olgan qishloqning oldi odami Yusuf aka kabi personajlar namoyon etgan. Asarning bosh qahramoni – Abdulla- o'qimishli, ziyoli, oilaning farzandi, maktabni oltin medal bilan yakunlaydi. Abdulla doimo yaxshi kasb egasi bo'lishga, yuqori cho'qqilarni zabt etishga intiladi.

Abdulla tez-tez buvisinikiga, Mingbuloqqa borib turar edi. Maktabni oltin medalga bitirganidan so'ng u buvisinikiga, qishloqqa qaytadi. U yerda yoshlikdagi o'rtog'i chiroyli, odobli Gulchehrani uchratib qoladi. Abdulla shaharga qaytguncha ular uchrashib yurishadi. Ta'tildan so'ng ikkalasi ham oliygohga topshirishi kerak edi. Gulchehraning maqsadi aniq me'mor bo'lish edi. U qishlog'ining eski maketini yasay boshlagandi. Ammo Gulchehra shaharga o'qishga bora olmasdi. Chunki onasi saratonga chalingan, ota-onasini shu holda tashlab ketishga ko'zi qiymasdi. Abdullani esa buvisinikidan qaytgach katta yangilik kutayotgandi. O'sha uning otasi gipertoniya kasalligiga uchragan edi va otasining oldiga Tursunali aka degan tanishi ko'rgani kelgan edi. Abdullaning Moskvadagi yangi ochilgan institutda o'qishiga



yordam berishini aytadi, G'ofir aka esa bu odamga ilgari yordam berganigini keyin eslaydi.

Tursunali aka Abdullaning zeharli va quntli bola ekanligini biladi hamda qizi Sayyoraga sherik qilib jo'natmoqchi edi. Abdulla bu gaplarni eshitib biroz gangiydi. Agar ketsa, Gulchehradan uzoqlashib ketishini o'ylaydi-yu, ammo rozi bo'ladi. So'ng Moskvada Sayyora bilan 4 yil o'qiydi. Bu orada Gulchehraning onasi vafot etib, otasi boshqa ayolga uylangan edi. Gulchehra esa qishlog'ining yangi maketini yaratadi va Toshkentda "Yoshlik"nomli mehmonxona uchun loyihalar tanlovida g'olib bo'lib, uning chizmalari asosida mehmona qurila boshlaydi. Biroq birgina katta muammo bor edi. Gulchehra homilador edi.

Bu payt Abdulla o'qishni bitiray deb qolgan, xayollari chalkash bir ahvolda edi. Sababi shundaki, Tursunali aka esa akademik unvon olgan bo'lib bu unvon Abdullaning ham orzusiga aylangan, yuragiga o't solgandi. Tursunboy aka Abdullani kuyov qilish niyatini bilganidan so'ng, u uchun Sayyoraga uylanish unvon tomon dadil qadam bo'lishini o'ylab qolgandi. Abdulla uchun Sayyoraga uylanish porloq kelajak kafolatidek ko'rini boshladi. Lekin uning ko'ngli Gulchehrada edi. Shunday ikkilanib yurgan bir kunida Gulchehra homiladorligi haqida xatni o'qiydi. U to'satdan sarosimaga tushib qoladi. Ammo Abdulla homilani olib tashlash haqida telegramma jo'natadi.

Gulchehra homilani oldirish maqsadida Toshkentga yo'l oladi. Bu orada uning loyihasi asosida qurilayotgan mehmonxona ham bitib qolgandi. Ishlarni ko'zdan kechirib, doctor qidira boshlaydi. Bir necha kun bire kampirnikida ijarada turgan Gulchehra Abdullaning onasini bozorda uchratib qoladi va Abdullani uylantirayotganini aytadi. Butun orzulari payhon bo'lgan, tuyg'ulari toptalgan Gulchehra uyga sig'may kechasi chala bitgan mehmonxonaga boradi-da, eng yuqori qavatga chiqib, kutilmaganda tushib ketib jon beradi.

To'g'ri Abdulla chindan ham samimiy, tirishqoq, insofli bola edi. Lekin uning shuhratparast bo'lib ketishiga bolaligidagi adolatsizlik, maktab payti orttirgan ruhiy jarahati sabab bo'ldi. Otasi amal otidan tushgandan so'ng unga nisbatan o'qituvchilarning munosabati keskin o'zgarishi, ayniqsa, otasining do'sti Husan



amakinging ikkiyuzlamachiliklari Abdullani butunlay o'zgartirib yuborgandi. Unda dunyoda eng zo'ri bo'lsanggina seni hurmat qilishadi, senga tavallo etishadi degan tushuncha paydo bo'ladi. Uning Gulchehraga bo'lgan sevgisi sof edi toki Sayyoraga uylanish mavzusi ko'tarilmaguncha. Aynan shu nuqta, ya'ni va'dasiga vafo qilib, Gulchehraga uylangan holda qiyin vaziyatdan qutqarish yoki Sayyoraga uylanib porloq kelajakni ta'minlashdan birini tanlash nuqtasi Abdullaning hayotida bir imtihon edi.

Afsuski, qanchadan qancha imtihonlardan o'tib kelayotgan, oltin medalli o'quvchi, eng aqlli talaba bo'lgan Abdulla ushbu sinovga kelganda qoqildi. Hayotda yaxshi talaba bo'lolmadi. Hamma ham odam bo'lib tug'iladi lekin shu nomga loyiq bo'lishni har kim ham uddasidan chiqolmaydi. Odamiylik nomli xislat bor-a? Bu so'z odamga, chin insonga xos xislat sanaladi. Abdulla o'tkinchi obro'-e'tiborga yetishaman deb vijdonini yutqazib qo'ydi, guldek bir qizning hayotiga zomin bo'ldi. Endi uning olim bo'lishidan biror ma'no bormi?! Aytishadi-ku dimlom degani farosat degani emas deb.

Inson, avvalo, olim bo'lishdan-da oldin odam bo'lmas ekan, topgan obro'-e'tibori, unvon-u amali bir pul emasmi?

Xulosa. O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" asari o'zbek adabiyotidagi o'rni beqiyosdir. Unda yoshlarning hayot yo'li axloqiy tanlovi, orzu-umidlari sinovdan o'tadi. Asarda insoniylik, vijdon, halollik, sadoqat, halollik, muhabbatga xiyonat kabi tushunchalar chuqur o'rin olgan. Aynan ushbu asar bugungi yoshlar uchun katta dars bo'la oladi va har bir insonni o'z hayotiga nazar solishga, ongli tanlov qilishga undaydi. Muallif adolatsizliklar, mansabparastlik, ikkiyuzlamachilik kabi muammolarni ochiq tasvirlaydi va jamiyatda chinakam odam bo'lish qiyinligini badiiy vositalar orqali isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.wikipedia.org>
2. O'lmas Umarbekov. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2025 –240b
3. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.—126b <https://kun.uz>